

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**Tarjimashunoslik
va qiyosiy
adabiyotshunoslik**

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 3 (2)

www.uzlctscs.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

TARJIMASHUNOSLIK VA
QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

TRANSLATION STUDIES AND
COMPARATIVE LITERARY
STADIES

2022 Vol. 3 (2)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o‘rinbosarlari: Uzoq Jo‘raqulov
Ziyoda Teshaboyeva
Mas‘ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay‘ati

Bahodir Xoliqov, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Komiljon Hamroyev, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva.

Jurnal haqida ma‘lumot

“Tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik” seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O‘zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda ikki marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlctscls.@navoiy-uni.uz

Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

MUNDARIJA
Jahon adabiyoti va tipologik talqin

Maxliyo Umarova Sharq va G'arb badiyatida muallif va qahramon masalasi.....	7
Fahriddin Yarmanov Bomarshening hayot va ijod yo'li	14
Dilnavoz Boyzoqova Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida Yusuf alayhissalom obrazi talqini	21
Epik janrlarni qiyosiy o'rganish	
Elyor Murtazayev Nazar Eshonqul "Urush odamlari" asarida urush fojiasining badiiy ifodasi.....	27
Sardor Sherqulov O'tkir Hoshimov ijodining qiyosiy adabiyotshunoslikda o'rganilishi.....	33
Sharq va G'arb lirikasi muammolari	
Sayohat Arziqulova Zulfiya Mo'minova she'riyatida milliy ruhiyatning aks etishi.....	39
Tarjima va tarjimashunoslik	
Shafiqa Yorqin O'zbek tarjimachiligi haqida.....	51
Ziyodaxon Teshaboyeva, Yulduz Zayniyeva "Boburnoma"da "payt" ma'noli izofalar va ularning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlili.....	62
Ra'noxon Xudjayeva Frazeologik omonimlarning inglizcha-o'zbekcha tarjimasi talqini	74
Nigora Sulaymonova Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balog'a» asarida she'riy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi	93
Zebiniso Bekmuradova Xiazm konstruksiyasi asosida qurilgan fransuz folklor matnlarining o'zbekcha tarjimalari.....	101
Chorshami Hayitov Realiyalar tarjimasi muammolari.....	107
Iltom Xolmo'minov Folklor asarlar tarjimasiga doir mulohazalar	114
Азиза Шералиева Перевод безэквивалентной лексики с английского на узбекский язык.....	119

Mahmud Zamaxshariyning «Asosu-l-balogʻa» asarida sheʻriy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi

Nigora Sulaymonova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balogʻa” nomli izohli lugʻatining illyustrativ metiriallaridan biri boʻlib xizmat qilgan sheʻriy parchalar va ularning ahamiyati haqida soʻz boradi. Oʻz davri uchun yangilik hisoblangan mazkur lugʻatda muallif lugʻat maqolalaridagi bosh soʻzlarni izohlashda illyustrativ material sifatida qator manbalar, jumladan, Qurʻoni karim oyatlari, hadisi shariflar, frazeologik birikmalar hamda sheʻriy parchalardan mohirona foydalangan. Maqolada “Asosu-l-balogʻa” lugʻatida qoʻllanilgan sheʻriy parchalar haqida soʻz yuritilib, ular tahlil qilingan. Lugʻatda kelgan arab tilidagi sheʻriy parchalar tarkibida qoʻllanilgan bosh soʻzlar ajratib olinib, ularning oʻzbek tilidagi ekvivalentlari berilgan.

Kalit soʻzlar: *Mahmud Zamaxshariy, “Asosu-l-balogʻa” asari, lugʻatshunoslik, izohli lugʻat, lugʻat maqola, bosh soʻz, izoh, illyustrativ material, sheʻriy parcha, shoir, arab tili, oʻzbek tili.*

Kirish

Xorazmlik alloma, yirik tilshunos va lugʻatshunos olim Mahmud Zamaxshariy ilmiy merosida ellikdan ortiq turli yoʻnalishlarda yaratilgan asarlar jamlangan. Ular orasida aynan lugʻatshunoslik sohasidagi asarlar nafaqat oʻz davrida, balki bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan. Allomaning muallifligidagi lugʻatlar orasida “Asosu-l-balogʻa”, yaʼni “Balogʻat asoslari” nomli lugʻat alohida oʻrin tutadi. Lugʻat nafaqat allomaning lugʻatshunoslikka oid asarlari orasida, balki butun arab lugʻatshunosligida ham muhim ahamiyatga ega.

Maʼlumki, lugʻatning toʻliqligi va uning leksik jihatdan boyligiga ishora qiluvchi omil bu uning manbalaridir. Unda u yoki bu soʻzning qoʻllanilish xususiyatlarini koʻrsatish, izohlanayotgan soʻzning stilistik, qolaversa, maʼno xususiyatlarini ochib berish maqsadida badiiy, folklor adabiyotlardan misollar keltiriladi. «Asosu-l-balogʻa»da soʻzlarning batafsil va mukammal izohini

¹ *Sulaymonova Nigora Askaraliyevna* – filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: sulaymonova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6575-8742

Iqtibos uchun: Sulaymonova, N.A. 2022. “Mahmud Zamaxshariyning “Asosu-l-balogʻa” asarida sheʻriy parchalarning illyustrativ manba sifatida berilishi”. Oʻzbekiston: til va madaniyat. 3 (2): 93-100.

berish maqsadida tasdiqlovchi misollardan keng foydalanilgan. Bunda asos bo'lgan manbalar Qur'oni karim, Hadisi shariflar, Mahmud Zamaxshariygacha va uning davrida yashab ijod etgan yetuk shoirlarning nazmiy asarlaridan olingan parchalar, frazeologizmlar, maqollar hisoblanadi.

Zamaxshariy davrida lug'atlarda so'zlarni izohlashda shoirlarning she'rlaridan foydalanish an'anaga aylangan edi. Olim ham bu an'ana doirasidan chiqmagan holda «Asosu-l-balog'a»da so'zlarni izohlashda o'zidan oldin yashab o'tgan va o'z davrining yetuk shoirlarining she'rlaridan keng foydalangan. «Asosu-l-balog'a»ning muqaddimasida ta'kidlanishicha, o'sha davr shoirlarining she'rlari arab tilining qonun-qoidalarini to'g'ri va o'rinli ishlatish borasida namuna hisoblangan [Zamaxshariy 1998, 15].

Ma'lumki, Zamaxshariy yashagan davrgacha arab she'riyatida quyidagi davrlar mavjud bo'lgan:

- Johiliya davri (V – VI asr);
- Ilk Islom davri (V asr);
- Ummaviylar davri (VI – VII asrning birinchi yarmi);
- Abbosiylar davri (VII asrning ikkinchi yarmidan XII asrgacha);
- Andalusiya she'riyati davri (VII – XIV asrlar)

Zamaxshariy yuqorida keltirilgan davr shoirlaridan 450dan ortig'ining adabiy meroslari bilan yaqindan tanishib, o'z lug'ati uchun ulardan misollar to'plagan. «Asosu-l-balog'a» uchun she'riy misollarni tanlashda Zamaxshariy asosiy e'tiborni jummalarda so'zning turli ma'noda ishlatilishiga qaratgan. Asarda ayrim lug'at maqolalarda birgina so'zning ma'nolarini izohlash uchun to'rtta turli shoirlarning she'rlaridan parchalar keltirilgan. Tasdiqlovchi misol sifatida keltirilgan she'riy parchalar bir misradan to'rt misragacha berilgan.

Zamaxshariy she'riy parchani keltirishdan oldin قال (*falonchi degan*), أنشد (*falonchi aytgan*), قول (*falonchining so'zi*), من قول (*falonchining so'zidan olingan*) so'zlarini ishlatgan holda «*Shanfara shunday degan*», «*Jarir aytgan*», «*Tufaylning so'zi*», «*Imru-l-Qays so'zlaridan*», deb, she'riy parcha muallifini ko'rsatgan.

Asarda Kaab ibn Zuhayr, Hasan ibn Sobit kabi Ilk Islom davri, Imru-l-Qays, Shanfara, Labid, Antara singari Johiliya davri, al-Axtal, Jarir, al-Farazdaq, Umar ibn Abu Robiya, Zu-r-Rumma kabi Ummaviylar davri, Abu Nuvvos, Abu Tammom singari Abbosiylar davri, ibn Tufayl kabi Andalusiya davri she'riyatining ko'zga ko'ringan namoyandalarining she'rlaridan keng foydalanilgan.

Masalan, جسر lug'at maqolasida Ummiya ibn Abu-s-Saltga mansub quyidagi she'riy parcha keltirilgan [Zamaxshariy 1998, 139]:

فهى تجرى فيه و تجتسر البحر
بأقلاعها كقذح المغالى

She'riy parchaning tarjimasi: «*U (Nuh a.s. kemasi) to'fonda suzadi, u(kema)ning yelkani dengizda kamonning o'qidek borib keladi*».

Misolda bosh so'zning VIII bob, hozirgi-kelasi zamon, birlik, III shaxs, muannas jins shakli kelgan. U *qatnamoq, borib kelmoq* ma'nolarini ifodalaydi.

سبب lug'at maqolasida ham Shummax devonidan quyidagi ikki qator she'r illyustrativ material sifatida berilgan [Zamaxshariy 1998, 471]:

مستببة قب البطون كأنها
رماح نحاهها وجهة الريح راكز

She'riy parchaning tarjimasi: «*Qavmlarning qo'l bilan ko'rsatiladigan boshlig'i g'alaba, rag'bat nayzasi singari viqorlidir*». Ushbu parchada bosh so'zning II bob, majhul daraja sifatdoshi keltirilgan. U *ishora qilinadigan, ko'rsatiladigan* kabi ma'nolarni beradi.

سلم lug'at maqolasida Umar ibn Abu Robia devonidan quyidagi bayt misol qilib keltirilgan [Zamaxshariy 1998, 432]:

فقالا لها فار فضّ فيض دموعها
كما أسلم السلك الجمان منظما

She'riy parchaning tarjimasi: «*Unga dedilar: «Uning ko'z yoshlari bamisoli simga bir tekis qilib terilgan dur donalaridek oqdi*». Mazkur she'riy parchada bosh so'zning IV bob, o'tgan zamon, birlik, III shaxs, muzakkar jins shakli kelgan. U ma'nolarini bildiradi.

ركض lug'at maqolasida Bariq Hazliyning quyidagi she'riy parchasi berilgan [Zamaxshariy 1998, 381]:

فأنت الذى يتقى شرّه
كما يتقى النار بالمركض

She'riy parchaning tarjimasi: «*Sen o't-olovning kesovidan saqlangan singari yomonlikdan ham saqlanadigan insonsan*». Misolda bosh so'zning I bobidan مفعّل vazni asosida yasalgan qurol-aslaha nomi berilgan. U *kesov* ma'nosini anglatadi.

عشو lug‘at maqolasida Zuhayr devonidan quyidagi bayt keltirilgan [Zamaxshariy 1998, 654]:

رأيت المنايا خبط عشواء من تصب
تمته و من تخطيء يعمر فيهرم

She‘riy parchaning tarjimasi: «*Taqdirning ko‘r tuyaga o‘xshashligini guvohi bo‘ldim (ya‘ni u o‘ylamasdan, tavakkaliga ish qiladi), o‘lmasligi kerak bo‘lgan odamni o‘ldiradi, o‘lishi kerak bo‘lgani esa sharti-ketib parti qolgunicha (qarigunicha) yashaydi, uzoq umr ko‘radi*». Mazkur she‘riy parchada bosh so‘z vazifasida jismoniy xususiyatni ifodalovchi asliy sifatning muannas jinsi berilgan. U *ko‘zi xira, yaxshi ko‘rmaydigan* degan ma‘nolarni anglatadi. Arablarda *عشواء* so‘zi *خَبَطَ* so‘zi bilan birga idiomatik ibora sifatida ishlatiladi. U *ko‘r tuyga*, deb tarjima qilinadi. Yuqoridagi baytda ham shu ibora ishlatilgan. Ibora *o‘ylamasdan, tavakkaliga ish qilmoq* kabi ma‘nolarni beradi.

«Asosu-l-balog‘a»da mualliflari ko‘rsatilmagan she‘riy parchalar ham talaygina bo‘lib, ular 3416 misrani tashkil etadi. Bunday hollarda Zamaxshariy parchani keltirishdan oldin «*qo:la*» – «*falonchi degan*» so‘zini berish bilangina kifoyalangan. Quyida misol tarzida keltiriladigan she‘riy parchalarning muallifi noma‘lum.

ركب lug‘at maqolasida quyidagi bir misra she‘riy parcha berilgan [Zamaxshariy 1998, 379]:

لا يركب الخيل إلا أن يركبها

She‘riy parchaning tarjimasi: «*U egarni o‘rnatmaguncha otga minmaydi*». She‘riy parchaning tarjimasidan uning mohirona tanlanganligi ko‘rinib turibdi. Sababi unda bosh so‘zning ikki xil: I bob, hozirgi-kelasi zamon, birlik, III shaxs, muzakkar jins va IV bob, hozirgi-kelasi zamon, birlik, III shaxs, muzakkar jins shakllari berilgan va ular ikki xil ma‘noni ifodalaydi. Birinchisi *otga minmoq* ma‘nosini bersa, ikkinchisi *egarlamog*, degan ma‘noni anglatadi.

صمت lug‘at maqolasida ham muallifi noma‘lum quyidagi bayt bor [Zamaxshariy 1998,557]:

إنك لا تشكو إلى مصمت
فاصبر على الحمل الثقيل أو مت

She'riy parchaning tarjimasi: «*Sen sukut saqlay olmaydigan kishiga shikoyat qilding (arzingni aytding), endi og'ir yukka sabr qil yo o'limni ixtiyor et*». Misolda bosh so'zning II bob, aniq daraja sifatdoshi berilgan. U *sukut saqlovchi, jim turuvchi* kabi ma'nolarni ifodalaydi.

غَمَضُ lug'at maqolasida quyidagi muallifi noma'lum she'riy parcha illyustrativ material sifatida berilgan [Zamaxshariy 1998, 712]:

و من لا يغمض عينه عن صديقه
و عن بعض ما فيه يمت و هو عاتب

She'riy parchaning tarjimasi: «*Kimki do'stining ba'zi ayblaridan ko'z yummasa, uni koyib-koyib bu dunyodan o'tib ketadi*». She'riy parchada bosh so'zning II bob, hozirgi-kelasi zamon, III shaxs, muzakkar jins shakli berilgan. U *عينه* so'zi bilan birga *biror narsadan ko'z yummoq*, degan ma'noni ifodalaydi.

سَلَمُ lug'at maqolasidan yana bir baytni keltiramiz [Zamaxshariy 1998, 381]:

و عوراء من قيل امرىء قد دفعتها
بسالمة العينين طالبة عذر

She'riy parchaning tarjimasi: «*Ko'zlar to'qnashuvi va pok niyat bilan kishining so'zidagi shubhani daf qildim*». Misoldagi bosh so'z hosilasi *to'qnashuv* ma'nosini anglatadi.

Tadqiqot davomida «Asosu-l-balog'a»da she'rlaridan illyustrativ material sifatida foydalanilgan shoirlarning nomlari qayd etib borildi. Natijada 450dan ortiq shoirlarning nomlari aniqlandi, to'plandi. Ularning ro'yxati 5-ildavda keltirilgan jadvalda arab alifbosi tartibida berildi.

Zamaxshariy o'z lug'atida 450 nafar shoirning nazmiy merosidan bir xil foydalanmagan. Ayrim shoirlarning she'rlariga ko'p marta murojaat etgan bo'lsa, ba'zilarining she'riy devonidan bir-ikki misradan iborat she'riy parchani tanlab olish bilan kifoyalangan. «Asosu-l-balog'a»da she'rlaridan ko'p foydalanilgan shoirlar qatoriga Zu-r-Rumma (984 misra), al-A'sha (266 misra), ar-Ro'iy (246 misra), an-Nabig'a Zubyaniiy (238 misra), Tirmax (236 misra), ibn Muqbal (208 misra), Labid (200 misra), Zuhayr (188 misra), Imru-l-Qays (182 misra), Jarir (182 misra), al-Axtal (144 misra), al-Farazdaq (144 misra) kabi shoirlarni kiritish mumkin. Quyida keltirilgan jadvalda Zamaxshariy «Asosu-l-balog'a»da she'rlaridan nisbatan ko'p foydalangan shoirlarning nomlari berilgan.

1-jadval. «Asosu-l-balog'a» lug'atida she'rlaridan keng foydalanilgan shoirlar nomlari va ulardan illyustrativ material sifatida olingan she'riy parchalar hajmi

№	Shoirning nomi	Misralar soni	№	Shoirning nomi	Misralar soni
1.	Zu-r-Rumma	984	26.	Hamid ibn Sur	68
2.	Al-A'sha	266	27.	Umar ibn Ahmar	64
3.	Ar-Ro'iy	246	28.	Adi ibn Zayd	62
4.	Nabig'a Zabyaniy	238	29.	Namr ibn Tavallub	60
5.	At-Tirmax	236	30.	Hasan ibn Sobit	58
6.	Ibn Muqbal	208	31.	Abu Duad	56
7.	Labid	200	32.	Kaab ibn Zuhayr	54
8.	Ruaba	200	33.	Turfa	54
9.	Al-Kamyat	192	34.	Tufayl /anaviy	50
10.	Zuhayr	188	35.	Antara	48
11.	Imru-l-Qays	182	36.	Abu Rabid Toy	44
12.	Jarir	182	37.	Al-Hansa	38
13.	Al-Ajjoj	178	38.	Ibn Miyada	36
14.	Ash-Shummax	172	39.	Ibn Hurma	34
15.	Al-Axtal	144	40.	Alqama	32
16.	Al-Farazdaq	144	41.	Hotamtoy	32
17.	Nabig'a Ja'diy	120	42.	Abu Vajza	32
18.	Abu Robia	98	43.	Masib ibn Uls	28
19.	Us ibn Hajar	94	44.	Mutalammis	28
20.	Bashar	90	45.	Amita ibn Abu Salt	28
21.	Abu Najm	88	46.	Abbos ibn Murdos	26
22.	Kasir Izza	84	47.	Abu Xirosh	26
23.	Al-Qitomiy	80	48.	Muzohim Aqiliy	24
24.	Abu Zuayb	76	49.	Durayd ibn Sima	24
25.	Al-Hatia	68	50.	Mutanahhil	22

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Mahmud Zamaxshariyning "Asosu-l-balog'a" asarida so'zlarning batafsil va mukammal izohini berish maqsadida tasdiqlovchi misollardan keng foydalangan. Bunda asos bo'lgan manbalar Qur'oni karim, hadisi shariflar, Mahmud Zamaxshariygacha va uning davrida yashab ijod etgan yetuk shoirlarning nazmiy asarlaridan olingan parchalar,

frazeologizmlar, maqollar. Mazkur manbalar orasida she'riy parchalarning o'рни beqiyos. Ular lug'atning to'liqligi va uning leksik jihatdan boyligini ta'minlagan. Lug'atda XI-XII asrda yashab, ijod qilgan 500ga yaqin shoirning asarlaridan olingan she'riy parchalar yordamida so'zning qo'llanilish xususiyatlari ko'rsatilgan, izohlanayotgan so'zning stilistik, qolaversa, ma'no xususiyatlari ochib berilgan.

Adabiyotlar

Арабско-русский словарь. 1994. Т. 1-2. Тошкент: Камалак.

Zamaxshariy. 1998. Asa:su-l-balag'a. Muhammad Bosil Uyun as-Sud umumiy tahriri ostida. – Bayrut: Daru-l-kutubi-l-ilmiiya.

Белкин, В.М. 1975. Арабская лексикология. Москва: Издательство Московского университета.

Филин, Ф.П. 1957. Заметки по лексикологии и лексикографии // лексикографический сборник. Т.1. Москва: ГИС.

Rustamov A. 1971. Mahmud Zamaxshariy. – Tashkent: Fan

Representation of Poems as an Illustrative Source in "Asosu-l-baloga" by mahmud zamahshari

Nigora Sulaymonova¹

Abstract

This article discusses the poetic passages and their meaning, which served as one of the illustrative materials of the explanatory dictionary of Mahmud Zamakhshari "Asosu-l-baloga". In this new dictionary for its time, the author skillfully uses a number of sources, including verses from the Koran, hadiths, phraseological units and poetic passages, as illustrative material for the interpretation of key words in dictionary entries. The article examines and analyzes the poetic passages used in the dictionary "Asosu-l-baloga". The dictionary highlights the main words used in Arabic verses and gives their Uzbek equivalents.

Keywords: *Mahmud Zamakhshari, "Asosu-l-baloga", lexicography, annotated dictionary, dictionary entry, preface, commentary, illustrative material, poetic work, poet, Arabic, Uzbek.*

References

- Arabsko-russkiy slovar. 1994. T. 1-2. – T.: Kamalak.
- Az-Zamakhshariy. 1998. Asa: su-l-bala:gha. Edited by Muhammad Basil Uyun as-Sud. – Beirut: Daru-l-kutubi-l-ilmiyya.
- Belkin, V.M. 1975. Arabic lexicology. Moskva: Moskovskogo Universiteta Izdatelstvo.
- Filin, F.P. 1957. Notes on lexicology and lexicography // Lexicographic collection. V. 1. Moskva: GIS.
- Rustamov, A. 1971. Mahmud Zamakhshari. Toshkent: Fan.

¹ *Nigora A. Sulaymonova* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor. Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: sulaymonova@navoiy-uni.uz

ORCID ID: 0000-0001-6575-8742

For citation: Sulaymonova, N.A. 2022. "Representation of Poems as an illustrative source in "Asosu-l-baloga" by Mahmud Zamakhshari". Uzbekistan: Language and culture. 3 (2): 93-100.